

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО МУҲАНДИСЛИК-ТЕХНОЛОГИЯ
ИНСТИТУТИ**

Ижтимоий фанлар кафедраси

**«ИНСОН ҚАДРИ –
ТАРАҚҚИЁТ
СТРАТЕГИЯСИНИНГ
АСОСИ»**



Республика илмий-назарий конференцияси

(«Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»га бағишланади)

Бухоро – 2022

**ИНСОН ҚАДРИ –
тараққиёт стратегиясининг**

дунёда юз бераётган шиддатли ахборий ўзгаришлар, ҳаётимизга кириб келаётган коммуникацион янгиланишлар оилаларимиздаги асрлар мобайнида сақланиб келаётган юксак инсоний анъаналаримизга ўз таъсирини кўрсатди. ҳозирги даврда бола тарбиясида, айниқса қалбида ватанпарварлик, одамийлик, иймон-эътиқод туйғуларини уйғотиб, оила қаршисидаги масъулиятни ҳис қилиши, оилавий ҳаётнинг мураккаб жиҳатларини англаш, ҳар қандай қийинчиликларни енгиб ўтишига ўргатишимиз лозим. Оила фуқаролик жамиятининг ҳаракат нуқтаси, барқарор ва тинч тузилмасидир. Чунки бу муқаддас даргоҳда нафақат инсон дунёга келади, балки у маънан ва ахлоқан тарбия топади. Оила жамиятнинг табиий ҳужайраси, ижтимоий асосидир. Жамиятнинг мустаҳкамлиги оилага боғлиқ. Жамиятда оиланинг моддий ва ижтимоий жиҳатдан мустаҳкамланиб бориши муҳим аҳамиятга эга. Мамлакатимизда оилада маънавий баркамол, жисмоний соғлом ёш авлодни тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

**ZARGARLIK VA ZARDO'ZLIKKA OID TERMINLARNING
TARIXI VA ULARNING LINGVO-KULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

(o'zbek va fransuz tillari misolida)

Hojiyeva Gulchehra Salimovna-BuxDU mustaqil tadqiqotchisi, Nemis va fransuz tillari kafedراسи katta o'qituvchisi

Ma'lumki, san'at xalqni ulug'laydigan, uni butun dunyoga tanituvchi eng muhim omil bo'lib, san'at nafaqat, turli millat va elatlarning o'zligini anglash yo'lidagi buyuk kashfiyoti, balki, ularning o'zaro aloqalarini mustahkamlovchi qudratli kuchhamdir. Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida ko'pmingyillik ananalarimizni, jumladan, zargarlik va zardo'zlik san'atlarini ham, yanada rivojlantirish va dunyoga namoyon etish bilan bog'liq muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2007 yil dekabr oyida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Xalqaro Konvensiyasining mamlakatimizda ratifikatsiya qilinishi hamda 2008 yil 29 apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchi davlatiga aylanishi zargarlik va zardo'zlik san'atlarining YUNESCO nomoddiy me'rosari qatoridan o'rin olishiga sabab bo'ldi. Qolaversa, 2021-yil 29-aprel dagi o'zbekiston

Respublikasi Prezidentining «Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish to'grisida»gi PQ-5098-sonli qarori ham milliy ananalarimizni asrab avaylash va rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib hisoblanadi. Bu borada, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning terminologiya sohasi ham mazkur san'at turlariga doir terminlarni yanada chuqurroq tadqiq qilish, ularni turli noqardosh tillar, xususan, fransuz tili bilan qiyosiy va chog'ishtirma tahlillashni o'z oldiga maqsad qilgan.

Tadqiqot davomida tahlilga tortilgan "zargar" termini forscha *tilla buyum yasovchi* ma'nosini anglatib, qadimda qabila boshliqlari va ularning ayollariga boshqalardan ajralib turishlari uchun tosh, suyak va yog'ochdan taqinchoqlar yasaydigan hunarmand ko'rinishida paydo bo'lib, zamonlar osha ushbu kasb oltin, kumush kabi turli qimmatbaho tosh va metallardan zeb-ziynat buyumlari hamda taqinchoqlar yasashni san'at darajasiga ko'targan usta-hunarmand kasbini izohlab keladi. Mazkur termin fransuz tilida "orfèvre" atamasiga ekvivalent bo'lib, u eski fransuz tilidan kelib chiqqan *or* – oltin va *fèvre* – hunarmand so'zlaridan yasalgan [4,973]. Ushbu ikkala terminning leksik-semantik xususiyatlari quyidagi misolda o'z ifodasini topadi:

1-misol.

- Zargar 1. orfèvre;
2. orfèvre-joaillier;
3. orfèvre-bijoutier
4. bijoutier, ière;
5. diamantaire;
6. metteur en oeuvre;
7. joaillier, ière;
8. lapidaire [1,588].

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, "zargar" atamasining fransuz tilidagi tarjimalari nafaqat so'z, balki, juft so'z va so'z birikmalari asosida ham yasalgan bo'lib, umumiy ma'noda o'zaro sinonimiya hosil qiladi. Ushbu misollar ichida "orfèvre" termini dominantlik xususiyatiga ega.

"Zargarlik" hunari juda qadim zamonlardan mavjud bo'lib, Misr, Yunoniston, Eron va Xitoy hamda O'zbekiston hududidagi Dalvarzintepadan topilgan miloddan avvalgi I asrga oid ushbu hunar bilan bog'liq arxeologik topilmalar bundan dalolat beradi. Bunda asosan, ayollar zeb-ziynatlari tayyorlash texnologiyalari vositasida bosh, chakka, peshana, bo'yin, quloq, ko'krakka mo'ljallangan tillaqosh, gardon, takiya-tuzi,



mohi tilla, sirg'a, toj, bodom-oy, silsila, sochpopuk, tillo-targak, tosaukele, shokila, gajak, qo'sh-dou, butun-tirnoq, yarim-tirnoq, zirk, xalqa, gulband, tepish-i-dil, nozir-gardon, bezzak-qubba, bo'yin-tumor, ko'krak-tumor, amuletlar (qo'litiq-tumor), bilak-uzuk va uzuk singari yuzlab turdagi taqinchoqlar tayyorlangan. [3,202].

XX asrning boshlarida inqirozga yuz tutgan zargarlik san'ati mustaqillik yillarida qayta jonlanib, bugungi kun ustalari asosan ikki: unutilib borilayotgan ananalarni qayta tiklayotgan *mahalliy* va zamonaviy uslubda ijod qilayotgan ananaviy yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqdalar. Shu jihatdan, yuqorida tilga olingan xususiyatlar bilan birga o'zbek tilshunosligida ushbu termin yana bir qator ta'riflarga ham ega, jumladan:

- ✓ zargar hunarini egallaganlik;
- ✓ qimmatbaho metal va toshlardan bezaklar yasash;
- ✓ dekorativ-amaliy san'at turi;
- ✓ bozorda zargarlar joylashgan rasta, qator;
- ✓ zargarlar yashaydigan mahalla [2,136].

"Zargarlik" termini izohlaridan uning ko'p ma'noli so'z ekanligi anglashiladi. Tilda mazkur terminning fransuz leksikasiga xos bo'lgan quyidagi bir necha ma'nodoshlarini uchratish mumkin:

2-misol.

Orfèvrerie *m.* 1) zargarlik; 2) zargarlik buyumlari [1,376]; 3) san'at; 4) zargarlik buyumlari savdosi; 5) biror zargar tomonidan ishlangan buyumlar jamlanmasi [4,973]. Fransuz tilida "orfèvrerie" atamasi atrofida qurilgan quyidagi leksik birliklarni ham tilga olish o'rinli:

- ✓ pièce d'orfèvrerie ouvragée – ishlov berilgan zargarlik buyumi;
- ✓ marque d'orfèvre – zargarining belgisi;
- ✓ orfèvrerie d'argent massif – kumushdan qilingan zargarlik buyumlari.
- ✓ ouvrage d'orfèvrerie – zargarlik buyumi

Ushbu misollardan ko'rinadiki, har ikkala tilga xos tushunchalar ba'zan so'z, ba'zan so'z birikmalari asosida ifodalanib kelmoqda.

3-misol.

Joaillerie *f.* 1) zargarlik san'ati; 2) zargarlik mollari bilan savdo qilish; 3) zargarlik do'koni; 4) zargarlik mollari.

4-misol.

Filigrane *m.* – filigran, juda nafis ishlangan zargarlik buyumi.

Ushbu misollardan fransuz tilidagi "orfèvrerie", "joaillerie", "filigrane" terminlarining o'zaro ma'nodoshlik asosida "zargarlik" atamasiga ekvivalent bo'lib kelishini ko'rish mumkin.

"Zardo'z" atamasi forscha "zar" – *tilla*, "do'zi" – *tikmoq* ma'nosini anglatib, o'z o'rnida ko'plab ta'riflarga ega:

- 1) zar tikuvchi;
- 2) kiyimga zardan gul tikuvchi;
- 3) naqsh soluvchi;
- 4) chevar;
- 5) zardan tikilgan buyum.

Ushbu misollardan "zardo'z" terminining polisemantik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Tilda shuningdek, "*zardo'zi*" va "*zardo'zchi*" atamalari [2,137] ham mavjud bo'lib, tilshunoslikda mazkur til birliklari bitta sinonimik qatorni tashkil qiladi.

Zardo'zlar bezak sifatida zardo'zi zamindo'zi, zardo'zi guldo'zi, birishimdo'zi (agar ipak ishlatilsa) va pulakdo'zi (tugmasimon metall yaproqchalardan foydalanganda) singari bir necha usullarni qo'llab, san'at asarlarini yaratadilar. Shu o'rinda tarixiy manbalarga nazar solsak, arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar O'rta Osiyo xalqlari orasida zardo'zi kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Buning isboti sifatida ispan elchisi de Klavixo o'z esdaliklarida zardo'zlik usulida tikilgan ko'rpa-to'shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida, shuningdek, erkak va ayollarning zar ipda tikilgan kiyimlari haqida yozib qoldirganini keltirib o'tish mumkin.

tayyorlangan. Dastlab, ushbu hunar bilan erkaklar, so'ngra ayollar shug'ullanganlar. [3,204] Mazkur ko'p asrlik san'at turining bugungi kun terminshunosligida yana bir nechta ta'riflari mavjud:

- zardo'z kasbi
- zar ip bilan naqsh (kashta) tikish;
- zar qo'shib buyum tikish.

Yuqorida keltirilgan misollardagi til birliklari ularni tashkil etuvchi elementlariga ko'ra farq qilsa-da, ma'no jihatdan yagona sinonim qatorni hosil qiladi.

"Zardo'zlik"ning fransuz tiliga xos bo'lgan varianti "broderie d'or" deb atalib, ushbu san'at bilan shug'ullanuvchi kasb egasi "un brodeur" deb nomlanadi. Mazkur terminlarni leksik xususiyatga ko'ra tahlil etilganda, o'zbek tilidagi "zardo'zlik" atamasi ot+so'z yasovchi qo'shimcha vositasida yasama

**ИНСОН ҚАДРИ –
тараққиёт стратегиясининг**

so'z, uning fransuzcha ekvivalenti ot+ot shaklida qo'shma so'z bo'lib kelganligini ko'rish mumkin.

Fransuz va o'zbek tillaridagi "zargarlik" va "zardo'zlik" hamda "orfèvrerie" va "broderie d'or" terminlarini leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra qiyosiy va chog'ishtirma tahlil etib, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1. Ikki noqardosh fransuz va o'zbek tillariga xos terminlar shu til me'yorlaridan kelib chiqish bilan birga, o'z madaniyati va turmush tarzini ifodalashda ba'zan mushtaraklik va ba'zan o'zigaxoslik kasb etadi.

2. Har ikkala tilga xos bo'lgan terminlar tarkibi va tarjimasini so'z, juft so'z, so'z birikmasi yoki so'z qo'shilmasidan tarkib topganini ko'rish mumkin.

3. Shu bilan birga, o'zbek va fransuz tilidagi atamalar shu til sathida o'zining ko'plab sinonim va paronimlariga egaligi bilan xarakterlanadi.

4. Yevropada dastlab hunar sifatida paydo bo'lgan zardo'zlik bugungi kunda zamonaviy sanoatning bilan uyg'unlik kasb etgan bo'lsa, O'rta Osiyo, xususan, Buxoro zardo'zligi milliy hunarmandchilik asosidagi ananalarini saqlab qolgan san'at sifatida butun dunyo e'tirofiga sazovvor bo'lmoqda.

**СУХРАВАРДИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ БАРКАМОЛ ИНСОН
ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ**

*Муртозаев Шаҳобиддин Бахриддинович-БухДПИ Ижтимоий фанлар
кафераси ўқитувчиси*

Сухравардий учун сўфий шариатнинг рўза ва ибодат каби кўрсатмаларини чин дилдан қабул қиладиган ва итоаткорлик, ибодат орқали қалбни қондирадиган ва қалбни мақтовга сазовор қиладиган, Пайғамбарнинг ахлоқий фазилятлари билан безатадиган кишидир. У барча ишлари ва сўзлари билан Аллоҳнинг розилигига интилиши керак. Бир марта ҳам такаббурлик ва бузуқлик бўлмаган ишлар ҳақиқий этиқодга олиб келади. Ва самимий этиқод инсонни Оллоҳдан чинакам кўрқувга, маънавий покликка ва юксакликка олиб боради. Шундан сў сўфий Оллоҳнинг севгиси ва розилигига эришади.

Ўзини барча гўзал фазилятлар билан безаш сўфийлик меъёрларининг моҳиятидир. Сўфий ўзини яхши хулқ билан безаб туриши ва ҳар доим ўз қалбини поклашга ҳаракат қилиши керак. Покликни топган қалбда Оллоҳдан ўзга ҳеч нарса йўқ, чунки унинг учун қимматбаҳо ва оддий



**ИНСОН ҚАДРИ –
тараққиёт стратегиясининг**

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШДАГИ МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛДАГИ ВАЗИФАЛАР <i>Равшанова Гулчера Махаматовна</i>	103
ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ <i>Шодиев Ж.Ж.</i>	107
ИНСОН ҚАДРИНИ УЛУҒЛАШ КЕЛАЖАК ПОЙДЕВОРИ. <i>Азимов А.А.</i>	109
ОИЛА-НИКОҲ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЭВОЛЮЦИЯСИ. <i>Ғафуров Дониёр Орифович</i>	111
ZARGARLIK VA ZARDO'ZLIKKA OID TERMINLARNING TARIXI VA ULARNING LINGVO-KULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (o'zbek va fransuz tillari misolida) <i>Hojiyeva Gulchehra Salimovna</i>	115
СУҲРАВАРДИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ БАРКАМОЛ ИНСОН ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ <i>Муртозаев Шаҳобиддин Бахриддинович</i>	119
ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ <i>Равшанова Гулчера Махаматовна</i>	121
ИНСОН МАНФААТЛАРИНИ ЮКСАЛТИРИШ ЗАРУРИЯТИ. <i>Шодиев Ж.Ж.</i>	124
ЖАМИЯТДА ҚОНУН УСТИВОРЛИГИ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЯНАДА ОШИРИШ МУАММОЛАРИ. <i>Омарова Г.С., Уразбаев А.</i>	127
НАВОИЙ ЎГИТЛАРИДА БАРКАМОЛ ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ. <i>Султонова Л.С., Жумаева Д.</i>	130
ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ – ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИДАН БИРИ. <i>Султонова Л.</i>	132
ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. <i>Қодирова М.</i>	136
ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ. <i>Чориева Н.</i>	138
ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИДИР. <i>Тогаева С.Р.</i>	141
ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ – ДАВЛАТ СИЁСАТИ ДАРАЖАСИДА. <i>Каландарова Ф.А.</i>	143
БУХОРОДА МАЪРИФАТПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ. <i>Қамариддинов Ш.</i>	146
АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ. <i>Қамариддинова Г.</i>	148